



**“O‘ZBEKISTON ILMIY-SINOV VA SIFAT NAZORATI MARKAZI”
DAVLAT MUASSASASI**

BUYRUG‘I

**Amaldagi xizmat preyskurantiga
o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida**

Sinov laboratoriyalar majmuasi boshlig‘i A.Xakimovning 2026-yil 13-apreldagi bildirgisiga ko‘ra **buyuraman:**

1. “O‘zTest” DMning 2025-yil 19-sentyabrdagi 165-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 3-ilovasidagi “Sinov laboratoriyalari majmuasi” akkreditasiya sohasiga kirgan mahsulotlar ustidan sinovlar uchun belgilangan narxnomadan 15,61 bandlar chiqarilsin va 68 band kiritilsin:

No	Mahsulot nomi va turi	Mahsulotni sinash uchun olinadigan xizmat (QQSsiz) narxi, so‘mda.	QQS (12%) bilan narxi, so‘mda.
68	SLM Sinov (emm) Elektromagnit moslashuvchanlik (avtotransport vositalari va qishloq xo‘jalik texnikalari quyidagi toifalari uchun (L, M, N, O, T, K, S1)	4 020 000	4 502 400

2. Yangi tahrirdagi band 2026-yilning 27-aprel kunidan kuchga kiritilsin.

3. Buxgalteriya (**B.Alimboev**) bir kunlik muddatda sinov va sertifikatlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma, hisob-faktura va boshqa zarur hujjatlarga tegishli o‘zgartirish, qo‘shimchalar kiritsin.

4. Sertifikatlashtirish idoralari, sinov laboratoriyalari hamda hududiy filial rahbarlari avtotransport va shu turdagi mahsulotlarga sinov xizmatini ko‘rsatishda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan narxga qat‘iy amal qilsinlar.

5. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo‘limi (**J.Kamolov**) ushbu buyruqni UzTest.uz saytiga kiritilishini, Ijro intizomi, axborot-taxlil va murojaatlar bo‘limi (**F.Abidov**) ijro dasturi orqali ishlab chiqarish bo‘linmalar rahbarlari va mutaxassislariga yuborilishini ta‘minlasinlar.

6. Mazkur buyruq bajarilishini nazorat qilish direktor o‘rinbosari F.Madumarov zimmasiga yuklatilsin.

Direktor v.b.

D.Kattaxodjaev